

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: 330.3:61(575.1)

NORMAMATOVA UMIDA ZAYNUDDIN QIZI

**O‘ZBEKISTONDA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMINI USTUVOR
RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**70310102– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar:
i.f.n., dots. Ro‘ziyeva D.I.

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertasiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 47 - sonli bayonnoma « 03 » 05 2023 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Ro'ziyeva D.I

Magistr: U.Normamatova



Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil " 24 " 05 -
№ 2/18 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrasini
mudiri dots. I.Xotamov

" 8 " " 05 " 2023 yil



Himoya Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida 2023 yil " 29 "
may soat " 10⁰⁰ " da bo'ladi.

ANNOTATSIYA

Mamlakat iqtisodiyotida aholi sog'lig'ini muhofaza qilishga yo'naltiriladigan byudjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, maqsadli dasturlarni moliyalashtirish va sog'liqni saqlashning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun byudjetdan tashqari mablag'larni, xorijiy investitsiyalarni va xalqaro tashkilotlarning mablag'larini sohaga jalb qilish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, bugungi kunda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholi sog'ligini yaxshilashga qaratilgan turli islohotlarni amalga oshirilayotgan bir vaqtda sog'liqni saqlash tizimiga investitsiyalarni jalb qilish eng dolzarb muammolardan biri sanaladi. Shu bois tadqiqot ishim davomida ushbu mavzu doirasida muhokama olib boramiz. Jumladan mavzuga tegishli tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy - me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz sog'liqni saqlash sohasi xususan "O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-Epidemiologik Osoyishtalik va Jamoat Salomatligi Qo'mitasi " faoliyatidagi investitsiya loyihalari va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida tahlil usullari yordamida o'rgandik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida sohada investitsiyalash samaradorligini oshirish uchun amaliy taklif va xulosa ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *Investitsiya loyihasi, sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish, investor, sog'liqni saqlash sohasiga xorijiy investitsiyani jalb qilish, sog'liqni saqlash sohasi segmentlari, to'g'ridan- to'g'ri investitsiyalar.*

ABSTRACT

In order to increase the effectiveness of the use of budget funds directed to the protection of public health in the country's economy, to finance targeted programs and to strengthen the material and technical base of health care, a number of activities are being carried out to attract extra-budgetary funds, foreign investments and funds of international organizations to the sector.

Especially today, at the same time as various reforms aimed at the formation of a healthy lifestyle among the population, improving the health of the population, attracting investments to the health care system is considered one of the most urgent problems. Therefore, during my research work, we will discuss this topic.

In particular, we prepared a review of the literature after studying relevant research works, views of local and foreign scientists, scientific articles, and local regulatory documents related to the topic. In order to increase the practical importance of the scientific work, the health sector of our country, in particular, the investment projects in the activity of the "Sanitary-Epidemiological Peace and Public Health Committee of the Republic of Uzbekistan" and the extent to which work with them is carried out using statistical data analysis methods. we learned Based on the studied and analyzed data, we have developed a practical proposal and conclusion to increase the efficiency of investment in the field.

Key words: *Investment project, healthcare financing, investor, attraction of foreign investment in the healthcare sector, segments of the healthcare sector, direct investments.*

MUNDARIJA

ANNOTATSIYA	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO'YHATI	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR RO'YXATI.....	8
KIRISH.....	9
Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	12
Tadqiqot obyekti va predmeti	14
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.....	14
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	14
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
1.1. Kirish.....	16
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	16
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	24
II BOB. METODOLOGIYA.....	33
2.1. Tadqiqot dizayni.....	33
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	33
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	34
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	34
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	34
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	35
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	37
3.1. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini ustuvor rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari.....	37
3.2. O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini rivojlanishga jalb qilingan investitsiyalar holati tahlili.....	46
3.3. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasining rivojlanish tendensiyalari va investitsiyalar jalb qilishning istiqboliga doir tavsiyalar	55
XULOSA.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	68

KIRISH

Ijtimoiy sohaning asosiy bo'g'ini – bu sog'liqni saqlash tizimidir. Mamlakatning kelajagi, kuch-qudrati, jahon hamjamiyati oldidagi obro' -e'tibori va salohiyati xalqining sog'ligi oilaviy tinch - totuvligi, moddiy va ma'naviy barkomolligiga bog'liq. Bekorga “Sog' tanda — sog'lom aql” , “xalq sog'ligi — yurt boyligi” deyishmagan.

Xalqning asosiy boyligi - aholi salomatligini muhofaza qilish , O'zbekistonning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, doimiy Prezidentimiz va hukumat e'tiborida bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham “Har kim sog'liqni saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega.”¹ – deb yozilgan. Albatta malakali tibbiy xizmat o'z o'rnida sohani moliyalashtirishni talab etadi.

Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni tashkil etish ushbu tarmoqqa mablag'lar qo'yishning ob'ektiv shartlilikidan kelib chiqiladi. Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirish o'z –o'zidan davlatning iqtisodiy rivojlanishiga , mehnat unumdorligining oshishiga ta'sir qiladi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida sohani moliyalashtirishni hamda mablag'lardan samarali foydalanishni yanada takomillashtirish bugungi kun tartibidagi muhim masalalardan bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham bu borada shunday degan edilar: “Tashqaridan investitsiya kirmasa, mamlakat rivojlanmaydi”². Shu sababli investorlarni jalb qilish masalasi har doim Prezidentimiz diqqat markazida. 2019-yil mamlakatimizda “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili” deb e'lon qilindi. Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tashkil etildi.

So'nggi yillarda tarmoq mablag'lari hajmida budjet ulushini asta sekinlik bilan kamaytirib borish uchun iqtisodiy sharoit hamda huquqiy-me'yoriy asoslar

¹ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 48-moddasi. 30.04.2023 yil

² Sh. Mirziyoyevning “O'zarxiv” agentligi xorijiy investorlar bilan muzokalarida” so'zlagan nutqidan 01.06.2019y